

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH DAVLAT XIZMATI

Joniqulova Durdona Fazliddin qizi

Adhamova Hafiza Bahriddin qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPU

maktab menejmenti yo'nalishi talabalari

Alimova Qunduz Oybek qizi

maktab menejmenti kafedراسi o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada bugungi kun uchun ahamiyatli bo'lgan ta'lim sifatini boshqarish haqida umumiy fikrlar berilgan va shu bilan birga davlatning ta'lim sifatini oshirish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim muassasalari, boshqarish, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS.

THEME: STATE SERVICE OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT


Annotation: the article gives general ideals about the management of the quality of education, which is important for today, and at the same time, additional measures of the state to improve the quality of education are given.

Key words: quality of education, educational institutions, management, international evaluation programs, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS.

*Haqiqiy ta'lim odamni odamiylikka
tayyorlashdir.
(N.I.Pirogov)*

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishi mamlakatimizdagi har bir sohada rivojlanish bo'lishi bilan belgilanadi. Bu esa albatta, mamlakatning iqtisodiy hamda ma'naviy taraqqiy etishiga asos hisoblanadi. Bu jarayonni yaxshilash maqsadida davlatimiz tomonidan qaror qabul qilingan. Ushbu qaror 2019-yil aprel oyida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2030-yilga qadar Xalq ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi. Ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirish hamda o'qitish metodikalarini takomillashtirishdan tashqari, konsepsiyada talabalar o'zlashtirishini baholashning xalqaro tadqiqoti—PISA reytingiga ko'ra O'zbekiston 2030-yilga qadar jahonning 30ta yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan.





Ta'lim sifatini boshqarish—"boshqaruv subyekti" tomonidan ta'limdagi barcha obyektlar va jarayonlarga nisbatan sifatning qaror topishi, ta'minlanishi, rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatish hamda ular tomonidan ta'riflangan maqsadlar, me'yorlar, standartlarga muvofiq teskari aloqani uyushtirish.

Ta'lim sifatini baholashning asosiy maqsadi bu—ta'lim tizimi va uning tarkibiy qismlari DTS asosida tavsiflanishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarning umumiy shkalasini ta'minlash. Sifatni kafolatlashning yana bir jihati ta'lim oluvchilar uchun ta'lim sifatining yuqori darajasini ta'minlashdir. Masalan, ISO standartlari va ta'lim natijalarini baholashning o'zgarib borayotgan tizimlari yordamida individual o'quv faoliyati natijalarini sifatni kafolatlashga urg'u bergan holda baholashning yangi tizimi rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga ta'lim oluvchilarning bilim salohiyatini baholash va nazorat qilish maqsadida tegishli tartibot va mexanizmlarni joriy etishni taklif etgan. 1994-yilda Davlat test markazi tashkil qilingan, u abituriyentlarni oliy ta'limga saralab beruvchi yagona test sinovlaridan shaffof holatda o'tkazadi, o'quvchilarning bilim sifatini baholash hamda nazorat qilishni ishlab chiqish, ta'lim sifatini aniqlashning ishonchli ta'minlash bo'yicha tadqiqot olib boradi.

Ta'lim sohasi tubdan yangilayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS, va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. PISA xalqaro baholash dasturi 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Ushbu dastur 15yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. PIRLS xalqaro baholash dasturi har besh yilda bir marta o'tkaziladi va hozirchacha 5marta o'tkazilgan. Ushbu dastur boshlang'ich sinfda o'qiydigan o'quvchilarning matnini o'qish va tushunish darajasilari sifatini baholab beruvchi dastur sanaladi. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4-va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini aniqlashga qaratilgan va har to'rt yilda bir marta o'tkaziladi. TALIS o'qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot hisoblanadi. Ilgari TALIS tadqiqoti har besh yilda bir marta o'tkazilgan bo'lsa, endilikda har olti yilda bir marta o'tkazilishi kutilmoqda. Ushbu xalqaro baholash dasturining asosiy maqsadi bu ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb ma'lumotlar taqdim etishdan iborat.





Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash ushbu soha orqali barcha sohalarni rivojlantirishdan iborat. Ya'ni buning sababi har bir sohaning ravnaq topishi bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. / T.: "Turon-iqbol", 2006.
2. <http://www.unicef.uz/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/07/schleicher/>
4. Jurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris-nashriyot, 2006.

